



## PREZIDENT SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI SAMMITINING NORASMIY TADBIRLARIDA ISHTIROK ETDI

31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga Tyanszin shahridagi “Meyszyan” kongress markazida Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitining norasmiy tadbirlarida ishtirok etdi.



Tadbirlarda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas’ud Pezeshkiyon, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux, Misr, Kambodja, Nepal, Armaniston hukumatlari rahbarlari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari va rafiqasini Xitoy Raisi Si Szinpin va rafiqasi samimiy kutib oldi.

Shundan so‘ng xorijiy yetakchilarga Shanxay hamkorlik tashkilotining Tyanszin sammitiga bag‘ishlangan konsert dasturi namoyish etildi.

O‘ZA

## BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDAGI MUHIM QADAM

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-avgust – 1-sentabr kunlari Xitoyning Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tadigan Shanxay hamkorlik tashkilotining (SHHT) navbatdagi sammitida ishtirok etadi.



Shanxay hamkorlik tashkiloti bugungi kunda eng yirik va nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylangan. Shanxay hamkorlik tashkiloti 2001-yilda tashkil etilganidan buyon dunyo aholisining 40 foizdan ortig‘ini va jahon yalpi ichki mahsulotining to‘rtdan bir qismini birlashtirgan nufuzli xalqaro tuzilma sifatida qisqa vaqt ichida o‘zini namoyon qildi.

Bugungi kunda SHHT oilasiga 10 ta a‘zo davlat, 2 ta kuzatuvchi va 14 ta muloqot bo‘yicha hamkorlar kiradi. Bu esa unga Osiyo, Yevropa va Afrikaning keng hududlarini qamrab olish imkonini beradi va shu orqali xavfsizlik, iqtisodiyot, transport, energetika va gumanitar aloqalar sohalarda ishonch va hamkorlik makonini yaratadi. Shunday qilib, o‘zib borayotgan

geosiyosiy notinchlik sharoitida SHHT muhim barqarorlashtiruvchi omil bo‘lib, dunyoga teng huquqli hamkorlik va barcha ishtirokchilar manfaatlarini hisobga olishning o‘ziga xos modelini taklif qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev SHHTning Ostona sammitida “Shanxay ruhi”ning o‘zgarmas qadriyati — ishonch, tenglik va madaniy xilma-xillikka hurmatni alohida qayd etdi. U, shuningdek, tashkilotning kuchi konsensus, qo‘shilmaslik va dunyoga ochiqlik asosida qarorlar qabul qilishida ekanini alohida ta’kidladi. “Hozirgi kunda SHHT hamjihatligi zaiflashishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Biz “SHHT oilasi” jipsligini kuchaytirishimiz, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga ichil tatbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz zarur”, dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston tashkilotining ta’sischi davlatlaridan biri sifatida an’anaviy tarzda faol pozitsiyani egallab, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va amaliy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda: Toshkent terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishni ichil qo‘llab-quvvatlaydi.

Davomi 4-betda

# SAMIMIY QUTLOVLAR

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, parlamentlar va hukumatlar, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, yirik korporatsiya va kompaniyalar rahbarlari, taniqli siyosatchilar, jamoat va din arboblari samimiy qutlovlar kelmoqda.



**O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!  
Mamlakatingizning milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilsangiz.

O‘zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi, jahon maydonidagi nufuzi tobora ortib bormoqda, mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi ko‘plab muhim masalalarni hal etishga amaliy hissa qo‘shmoqda.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik va itifofchilik ruhida jadal rivojlanmoqda. MDH, SHHT va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida sa’y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish yo‘lga qo‘yilgan.

Ishonchim komilki, biz bundan buyon ham Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalarni barcha yo‘nalishlarda har tomonlama rivojlantiramiz. Bu do‘st xalqlarimiz manfaatlariga, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadlariga to‘la mos keladi.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq va muvaffaqiyatlar, barcha yurtdoshlaringizga farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Vladimir PUTIN,**  
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



**O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblari!


O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Sizga va do‘st O‘zbekiston xalqiga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Sizning rahbarligingizda O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda, xalqning turmush darajasi yuksalmoqda, mamlakat dadil qadamlar bilan strategik maqsad — Yangi O‘zbekistonni barpo etish sari bormoqda. Bu do‘st va qo‘shni, har qanday sharoitda strategik sherik sifatida Xitoyni behad quvontiradi.

Joriy yil iyun oyida Ostona bo‘lib o‘tgan uchrashuvimizda ikki mamlakatning har tomonlama hamkorligi bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishildi. Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi reja tuzildi. Siz bilan siyosiy o‘zaro ishonchni uzluksiz chuqurlashtirish, bir-birimizni qat’iy qo‘llab-quvvatlash, rivojlanish strategiyalarining o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash, “Bir makon, bir yo‘l”ni birgalikda sifatli barpo etish bo‘yicha sa’y-harakatlarni amalga oshirishga tayyorman.

O‘zbekiston Respublikasiga kuch-qudrat va ravnaq, uning xalqiga baxt-saodat va farovonlik tilayman.

**Si SZINPIN,**  
Xitoy Xalq Respublikasi Raisi



**O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblari!

Amerika Qo‘shma Shtatlari xalqi nomidan Sizga va O‘zbekiston xalqiga mamlakatingiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan eng ezgu tilaklarimni yo‘llayman. Bu uning tarixi va boy madaniyatini eslash uchun quvonchli sababdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatlarimiz o‘rtasidagi jadal strategik sheriklikka hissa qo‘shadigan muhim islohotlarni davom ettirmoqda. Biz umumiy manfaatlarimizni ilgari surish, jumladan, chegaralarimizni mustahkamlash, ikki tomonlama savdo va investitsiyalarni ko‘paytirish, diniy erkinlik va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘lida birgalikda salmoqli ishlarni amalga oshirdik.

Qo‘shma Shtatlar mavjud aloqalarni mustahkamlash va o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi imkoniyatlarini ochishga umid qilmoqda. Sizga va fuqarolaringizga Mustaqillik bayrami munosabati bilan baxt-saodat va eng ezgu tilaklarimni bildiraman.

Hurmat bilan,

**Donald TRAMP,**  
Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti

Davomi 2-, 3-betlarda



## AVLODLAR TAQDIRIGA DAXLDOR STRATEGIK O‘ZGARISHLAR

Islohotlar ortida qat’iy siyosiy iroda, xalq manfaatini ustuvor qo‘ygan davlat rahbarining strategik qarashlari va eng muhimi, millatning o‘zgarishga ishtiyoqi mujassam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, birgina Harakatlar

### Islohotlar amalda

O‘zbekistonda keyingi yillarda kechayotgan tub o‘zgarishlar, shiddatli islohotlar va inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan sa’y-harakatlar haqida gap ketganda, avvalo, bir narsani teran his etish joiz. Bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmadi.

strategiyasi doirasida yigirma besh yilda qo‘lga kiritilmagan natijalar, yutuqlarga erishildi.

Davomi 5-betda



### Odamlardan tinglab hikoya...

**YANGICHA RUH —  
YANGICHA YASHASH  
YUTUQLAR SARI  
PARVOZLARIMIZ  
MAHALLADAN BOSHLANMOQDA**







# SAMIMIY QUTLOVLAR

## Boshlanishi 1-, 2-betlarda

Bu sana nafaqat mamlakatingiz suvereniteti bayrami, balki xalqingiz matonati va intilishlaridan dalolatdir. U O‘zbekiston erishgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va mamlakatingiz o‘rtasida o‘natilgan mustahkam do‘stona aloqalarni e’tirof etish imkonini beradi.

Bizning sherikligimiz, shubhasiz, yangi bosqichga ko‘tarildi, barcha sohalarida, shu jumladan, Sizning yetakchilingiz ostida sermahsul va ko‘p qirrali hamkorlik bilan ajralib turadi. Joriy yil aprel oyida Samarqandda “Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo” birinchi sammiti doirasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvimiz, shuningdek, o‘zbek xalqining mehmondo‘stligini his etish baxtiga muayassar bo‘lganim haqida ajoyib xotiralar saqlanib qolgan.

Siz bilan 2025-yil 24-oktabr kuni Bryusselda bo‘lib o‘tadigan uchrashuvni intiqlik bilan kutaman, u yerda Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi munosabati bilan fikr almashishni davom ettirish imkoniga ega bo‘lamiz.

Fursatdan foydalanib, Sizga, Janobi Oliylari, yana bir bor yuksak ehtiromimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Samimiyat ila,

Antoniu KOSHTA,  
Yevropa kengashi Prezidenti

\*\*\*

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
Janobi Oliylariga

Prezident janoblari!  
O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni munosabati bilan Sizga va o‘zbek xalqiga samimiy tabriklarimni yo‘llayman.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar mustahkam sheriklik xususiyatiga ega. O‘tgan yili ham ular rivojlanishda davom etganini ta’kidlashdan mamnunman. Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik mintaqaviy sherikligi, shuningdek, imzolangan Migratsiya va harakatlanish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim ikki tomonlama hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish yo‘lida yangi yo‘nalishlarni belgilab berdi.

Rahbarligingizda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatida Sizga katta muvaffaqiyatlar tilayman va Germaniya bundan buyon ham ishonchli hamkor sifatida Sizni qo‘llab-quvvatlashini ishonitirib aytaman. Barqaror, farovon va demokratik O‘zbekiston butun mintaqqa uchun muhim ahamiyatga ega.

Prezident janoblari, mening eng ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz, O‘zbekiston xalqiga esa erkinlik, xavfsizlik va farovonlikka asoslangan tinch kelajak tilayman.

Frank-Valter SHTAYNMAYER,  
Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti

\*\*\*

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
Janobi Oliylariga

Prezident janoblari!  
Mustaqillik bayrami munosabati bilan shaxsan o‘z nomimdan va Italiya Respublikasi nomidan Sizni samimiy muborakbod etishga ijozat bergaysiz.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik hamkorlikni kengaytirish o‘zaro manfaatlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ishonchim komilki, bu jarayon turli sohalarni qamrab olib, bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi samarali uchrashuvlarda erishilgan natijalarga yangi sur‘at bag‘ishlaydi va ko‘plab qo‘shma loyihalarda o‘z ifodasini topadi.

Toshkent va Rim o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli ikki tomonlama muloqot mintaqaviy hamkorlik orqali ham yanada rivojlanmoqda. Bugungi kunda “Italiya — Markaziy Osiyo” formati tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash uchun o‘ziga xos maydon bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umid qilamanki, mamlakatingizning Yevropa Ittifoqi bilan tobora chuqurlashib borayotgan munosabatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlangan tamoyillarga sodiqlik, xalqaro tartib me’yorlari va qoidalariga rioya qilish bilan birgalikda ushbu yuksak maqsadlarga erishishga olib keladi.

Fursatdan foydalanib, Sizga va do‘st O‘zbekiston xalqiga yana bir bor farovonlik va ravnaq tilayman.

Serjo MATTARELLA,  
Italiya Respublikasi Prezidenti

\*\*\*

Quyidagilar ham o‘z tabriklarini yo‘llagan:  
Armaniston Respublikasi Bosh vaziri **Nikol Pashinyan**,  
Saudiya Arabistoni Podshohi **Salmon ibn Abdulaziz Ol Saud**,  
Saudiya Arabistoni Valiahdi, Bosh vaziri **Muhammad ibn Salmon Ol Saud**,  
Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti **Asif Ali Zardariy**,  
Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon**,  
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum**,  
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident Administratsiyasi rahbari **Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon**,  
Bolgariya Respublikasi Prezidenti **Rumen Radev**,  
Vengriya Prezidenti **Tamash Shuyok**,  
Vengriya Bosh vaziri **Viktor Orban**,  
Irlandiya Respublikasi Prezidenti **Maykl Xiggins**,

Serbiya Respublikasi Prezidenti **Aleksandr Vuchich**,  
Sloveniya Respublikasi Prezidenti **Natasha Pirs Musar**,  
Slovakiya Respublikasi Prezidenti **Peter Pellegrini**,  
Latviya Respublikasi Prezidenti **Edgars Rinkevichs**,  
Chernogoriya Respublikasi Prezidenti **Yakov Milatovich**,  
Chexiya Respublikasi Prezidenti **Petr Pavel**,  
Shveysariya Konfederatsiyasi Prezidenti **Karin Keller-Zutter**,  
Estoniya Respublikasi Prezidenti **Alar Karis**,  
Gruziya Prezidenti **Mixail Kavelashvili**,  
Bosniya va Gersegovina Prezidiumi Raisi **Jelko Komshich**,  
Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Qirolli **Charlz III**,  
Yaponiya Imperatori **Naruxito**,  
Belgiyaliklar Qirolli **Filipp**,  
Ispaniya Qirolli **Filipp VI**,  
Marokash Podshohi **Muhammad VI**,  
Kambodja Podshohi **Norodom Siamoni**,  
Mo‘g‘uliston Prezidenti **Uxnaagiyn Xurelsux**,  
Singapur Respublikasi Prezidenti **Tarman Shanmugaratnam**,  
Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Prezidenti **Liong Kiong**,  
Malayziya Bosh vaziri **Anvar Ibrohim**,  
Tailand Podshohligi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi **Pxumtxam Vechayachay**,  
Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbos**,  
Afg‘oniston Bosh vaziri **Muhammad Xasan Ohund**,  
Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Nurlanbek Yermekbayev**,  
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev**,  
Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bosh kotibi **Sergey Lebedev**,  
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Asad Xon**,  
Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibroxim Toha**,  
Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti bosh direktori **Salim al-Malik**,  
BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bosh direktori **Syuy Dunyuy**.

Qutlovlar kelishda davom etmoqda.

## Munosabat

Eng ulug‘, eng aziz ayyom — mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yillik bayrami arafasida Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san‘at sohalarida ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan kamina ham “Imom Buxoriy” ordeni bilan taqdirlanganim kamtarona xizmatlarimizning yuksak e’tirofi bo‘ldi.

## MUKOFOT – XAYRLI ISHLARGA QANOT

Tarixi buyuk xalq buyuk kelajakni orzu qiladi. Bunday kelajakni esa buyuk yo‘lboshchi, oqil siyosatchigina barpo eta olishini O‘zbekistonimizning so‘nggi 7-8 yillik tarixi misolida ko‘rib turibmiz. Ayniqsa, yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor.

“Inson qadri uchun” degan hayotiy tamoyilga asoslanib olib borilayotgan islohotlar yurtimizda yashayotgan ko‘p millatli xalqimizning ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Bu ezgu tashabbusning joiybi samarasini diniy sohada ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yaqqol natijasi — yurtimizda, shu jumladan, Toshkent shahrida qad rostlayotgan ko‘rkam masjidlar haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Chunki bugun poytaxtimiz ulkan bunyodkorlik maydoniga aylangan. Zamonaviy va hashamatli imoratlarga mos tarzda bunyod etilgan masjidlarimiz uzukka qo‘yilgan ko‘zdek shahrimizga yarashib turibdi. So‘nggi 7-8 yilda poytaxtimizda o‘nga yaqin masjid bunyod etildi, qayta ta’mirlandi.

Bu ma’rifat va ma’naviyat maskanlari sirasiga “Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf”, “Oq uy”, “Rakat”, “Hasanxon qori” va yana ko‘plab qayta ta’mirlangan, yangidan barpo etilgan jomelarni kiritish mumkin. Masjidlarimizda tajribali imom-domlalarimiz xalqimiz mo‘min-musulmonlarining ma’rifatini, ma’naviyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, har hafta reja asosida namozxonlarga qulay bo‘lgan namoz vaqtlarida dinimiz ta’limotiga zid ish olib borayotgan toifalarning buzg‘unchi qarashlariga qarshi raddiyalar berib borilyapti.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarimiz o‘z natijalarini bermiqda. Adashib turli oqimlar ta’siriga tushib qolgan yoshlarimiz imomlarimizning suhbatlaridan so‘ng xatolarini anglab yetmoqda.

Zotan, islom — ma’rifat, ilm va ma’naviyat dini. Qur’oni karimda “imyon” so’zi, uning hosilalari 811 marta zikr qilingan. Shuningdek, “ilm” so’zi 782 marta, “ma’rifat” so’zi 29 marta takrorlangan. “Ilm”, “ma’rifat” so’zlarining sonini qo‘shsak (782+29), 811 bo‘ladi. Ya’ni ilm, ma’rifat soni qancha bo‘lsa, imyon ham shunchadir.



Abduqahhor domla YUNUSOV,  
Toshkent shahar bosh imom-xatibi,  
“Imom Buxoriy” ordeni sohibi

Bu nima degani? Bu olimlarga chinakam imyon sohiblari bo‘lishlari, ulargina Allohdan tom ma’noda qo‘rqishini anglatadi. Alloh taolo Qur’oni karimda “Bandalari orasida Allohdan ulamolargina qo‘rqarlar” (Fotir surasi, 28-oyat), deb bejiz marhamat qilmagan.

Boshqa bir oyati karimada esa “Aytin: “Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!” Darhaqiqat, faqat aql egalaringina eslatma olurlar” (Zumar surasi, 9-oyat), deyilgan.

Imom Termiziy bobomiz rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam “Ulamolar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir”, deganlar. Demak, ulamoga ko‘rsatilgan ehtirom Payg‘ambarimiz alayhissalomga, u zotning muborak hadislariga bizgacha yetib kelishida katta xizmat ko‘rsatgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy bobolarimizga ehtiromdir. Darvoqe, ordennning nomi ham “Imom Buxoriy” ekanini bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining diniy soha xodimlarini ordenlar bilan mukofotlaganlari bu — butun mo‘min-musulmonlarga qaratilgan e’tibor, e’zoz va ehtirom ramzi.

Mazkur mukofot bizni yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi islohotlarda, ayniqsa, diniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi o‘zgarishlarda Prezidentimiz bilan yelkama-yelka turib xizmat qilishga chorlaydi. Inshaalloh, shu buyuk ishonchni oqlab, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi, yoshlarimizni oqib-axloqli, yurtga muhabbatli qilib ulg‘aytirishda bor ilmu bilimimizni, tajribamizni, g‘ayratimizni ayamaymiz.



Mustaqillik xalqimizga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish va xususiy mulkdor bo‘lish huquqini qaytarib berdi. O‘tgan yillarda ushbu sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar qilindi.

Tadbirkorlik harakati tom ma’noda yangi O‘zbekistonda keng quloch yoyib, umummilliy harakatga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda bu jabhada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida tadbirkorlar va ishbilarmonlar soni ko‘payib, mustaqil Vatanimizning haqiqiy tayanchi va suvanchiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik, bunyodkorlik tuyg‘usini xalqimiz ongiga chuqur singdirish, oilalarning daromadini ko‘paytirish orqali har bir inson to‘kis va farovon yashashiga zamin yaratish, kambag‘allik muammosiga chek qo‘yish borasida katta qadamlar tashlanmoqda. Bu borada mahallalarda hokim yordamchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilgani ayni muddao bo‘ldi. Vatanimizning bugungi taraqqiyot yo‘lini belgilaydigan ana shunday muhim islohotlar jarayonida men ham faol ishtirok etayotganimdan behad mamnunman.



Azamat RO‘ZIYEV,  
Qorako‘l tumani “Mirzaqal’a”  
MFYdagi hokim yordamchisi,  
“Shuhrat” medali sohibi

Faoliyatimga to‘xtalsam, Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi Mirzaqal’a mahallasida hokim yordamchisi sifatida 4 yil avval ish boshlaganimda ishsizlik jiddiy muammo edi. Shu tufayli ayni navqiron yoshdagi yigit-qizlar ish izlab chet elga chiqib ketardi. Xonadonlarning tomorqasi borligiga qaramay, sug‘orishdagi va dehqonlarga xizmat

ko‘rsatishdagi muammolar tufayli yerdan to‘laonli foydalanilmasdi. Qolaversa, yerga faqat chorva uchun ekin ekilar, yaxshi daromad keltiradigan ekin yetishtirish borasida aholining bilimi va tajribasi yetishmasdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uning asosidagi davlat dasturlarida bu yo‘nalishda o‘z aksini topgan chora-tadbirlar izchillik bilan hayotga tatbiq etilishi natijasida bugun hatto markazdan olis qishloqlarimizga ham sanoat jadal kirib bormoqda. Masalan, Mirzaqal’a qishlog‘ini olaylik. Birgina joriy yilning o‘tgan davrida 12 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, ular soni 36 taga yetdi.

Mahalla markazida mikromarkaz tashkil qilindi. Bu yerda yangidan faoliyat boshlagan 10 ga yaqin tadbirkorlik subyekti ish yuritaypti. Natijada 30 ga yaqin yangi ish o‘rni ochildi. Ushbu mikromarkazda qahvaxona, umumiy ovqatlanish shoxobchasi, plastik eshik-rom sexi, mebel sexi, mashina ta’mirlash ustaxonasi, savdo va go’sht do‘koni, chorva mollariga omixta yem sotish shoxobchasi aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Ishsizlikni bartaraf etish va aholi bandligini ta’minlash maqsadida bu yil 62 kishiga 1,4 milliard so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Natijada 80 ta yangi ish o‘rni tashkil etildi. Shu tariqa mahallamiz ishsizlikdan xoli hududga aylandi, kambag‘allik ko‘rsatkichi kamayib bormoqda.

Ayni paytda bu ishlar davom ettirilyapti. Tomorqadan samarali foydalanish maqsadida

Sayxunobod tajribasi asosida 40 xonadonga “loyiha paketlari” yetkazib berildi. Endi ushbu xonadonlar mazkur loyiha doirasida issiqxona tashkil etib, yuqori daromadli ekin yetishtirish yoki asalari va chorva sonini ko‘paytirib, oilasi daromadini oshirishga erishadi. Ko‘pgina oilalarga berilgan motokultivatorlar ularga daromad keltirish bilan birga o‘z tomorqasiga ishlov berishda ham qulaylik yaratadi.

Yana bir yirik loyiha doirasida naslli chorva mollari olib kelinib ko‘paytirishga ixtisoslashtirilgan ferma tashkil etish bo‘yicha ishlar bajarilyapti. Tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga bozor topish masalasi ham e’tiborimizda.

Hokim yordamchilarining faolligi natijasida mahallalarda shakllangan samarali tajribani yurtimiz bo‘ylab keng yoyish maqsadida Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq, loyiha menejerlari guruhi shakllantirilgan. Ushbu guruhga jalb etilganman. Shu kunlarda bu yo‘nalishda Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida ishlayapman.

Ana shu yo‘nalishdagi ishlarim davlatimiz, xalqimiz tomonidan e’tirof etilib, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Bu mukofot men uchun nihoyatda qadrlil. Bunday sharafiga loyiq bo‘lish Vatanimiz va xalqimiz oldida eng muhim farzandlik burchimdir. Buni oqlash uchun harakat va izlanishdan aslo to‘xtamayman.

## Ezgu tashabbus

## MEHR VA KELAJAK KALITI TOPSHIRILDI

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi manfaati, haq-huquqlarini himoya qilish yo‘lidagi islohotlar o‘ksik qalbarga quvunch, shodlik olib kirmoqda. Ayniqsa, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarni uy-joy bilan ta’minlash, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash borasidagi xayrli tashabbuslar ko‘lami kundan kunga kengayib bormoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xayrixohligida chin yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan fuqarolarga yangi uylarning kaliti topshirildi.

Farg‘ona shahrida yashovchi Katrina Burnasheva ham yangi uyga ko‘chib o‘tdi. Ota-onasidan erta ayrilgan qiz yaxshilar mehrini his qilib ulg‘aydi. A’lo baholarga o‘qib, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi bo‘ldi. Uning orzu-maqсадlari bir olam.

— Har kim o‘z uyi, vatani bo‘lishini orzu qiladi, — deydi yangi uy sohibi. — Bizga ko‘rsatilayotgan e’tibor, g‘amxo‘rlikdan cheksiz minnatdormiz. Yangi uy hayotimda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Bildirilgan ishonchni har jihatdan oqlash, yurtimiz



taraqqiyoti uchun xizmat qilishga tayyorman.

Eng ulug‘, eng aziz bayramda nafaqat uy kaliti, balki ishonch, mehr va kelajak kaliti



topshirilyapti. Bu g‘amxo‘rlik insonlarning kundalik hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish bilan birga yangi O‘zbekistonda inson manfaati eng oliy qadriyat ekanidan dalolat beradi.

— Joriy yilda Farg‘ona viloyatidagi 57 yigit-qiz bepul uy-joy bilan ta’minlanishi rejalashtirilgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi shu’ba mudiri Mirtazoxon Alaviddinov. — Bugunga qadar 35 yigit-qiz uchun tegishli ravishda uy xarid qilindi va hujjatlashtirish jarayoni yakunlandi.

Yoshlarga uy berish orqali kelajakka ishonchi mustahkamlanyapti. Davlatimiz ko‘rsatayotgan ushbu g‘amxo‘rlik orqali yolg‘iz qolgan yoshlar o‘zining jamiyat uchun aziz inson ekanini his qilib yashamoqda.

Xalqimiz “Bir bolaga yetti mahalla — ota-ona” degan hikmatni bejiz aytmagan. Uning zamirida odamiylik, bag‘rikenglik, mehr-muruvvat rishtalari mujassam.

Rasuljon KAMOLOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



**Yigirma to‘rt yil avval — yangi asr bo‘lag‘asida Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekistonning doimiy a‘zolidagi Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ni tashkil etish to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolangan. Mazkur kelishuv insoniyat taraqqiyotining bugungi zamonaviy bosqichiga munosib bo‘lgan multo‘q yangi ruhiyatga asoslangan mintaqaviy tuzilmaning shonli tarixini boshlab berdi.**

Davlatlarning o‘zaro birlashgan tashkilotlari kam emas, aslida. Ularning ayrimlari harbiy, ba‘zilar iqtisodiy, qolganlari savdo-sotiqdagi hamkorlikka asoslangan.

SHHT muvaffaqiyati garovi



**Qobiljon SOBIROV,**  
**O‘zbekistonda SHHT**  
**Xalq diplomatiyasi markazi**  
**direktori**



madaniy aloqalar ham bog‘lab turadi. Asrlar davomida ulkan mintqa xalqlarini savdo-sotiq, madaniy-ma‘naviy qadriyatlar birlashtirib,

O‘zbekiston SHHT doirasida doimo yangi xavf-xatarlarga qarshi kurashish, savdo va iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik bo‘yicha qo‘shma salohiyatni oshirish, aholi farovonligini ta‘minlash, transport-kommunikatsiya aloqalarini mustahkamlashga jiddiy e‘tibor berib kelgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz SHHT nufuzini yanada yuksaltirish, mintqa doirasida savdo va transport bog‘liqligini rivojlantirish, bo‘xona tartibotlarini raqamlashtirish, bozorlarga o‘zaro chiqishni yengillashtirish, sanoat

“Raqamli dunyo” atalmish bugungi kunda oliy va yuqori darajadagi rasmiy aloqalar bilan birga turli maqomdagi insonlar, ularning o‘zaro manfaatli hamkorligini yaxshilashga hissa qo‘shadigan jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi xalq diplomatiyasi asosan madaniyat kasb etmoqda.

SHHT tashkil etilgan paytda uning ustuvor yo‘nalishi a‘zo davlatlar o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlikka qaratilgan. Tashkilot doirasidagi xalq diplomatiyasi asosan madaniyat kunlari, turli festivallar, sport tadbirlari,

birgalikda yakdill maqsadlar sari eltishga xizmat qiladi.

A‘zo davlatlar doirasida ish boshlagan Xalq diplomatiyasi markazlari hamkorligining tahlili haqiqatan tashkilotning o‘zida mazkur yo‘nalishni o‘zaro muvofiqlashtirib, ilmiy-ma‘rifiy va madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi tuzilmani tashkil etish zarurati borligini ko‘rsatmoqda.

Shanxay hamkorlik tashkiloti Bosh kotibining joriy yil martda O‘zbekistonga tashrifi va tashrif doirasidagi uchrashuv mobaynda SHHT kotibiyati, Xalq diplomatiyasi markazlari va euzu niyat elchilari — uch tomonlama maslahatlashuv platformasini ishga tushirish xususida fikr almashildi.

Bunday muvofiqlashtirish modeli tashkilot doirasida yagona gumanitar makonni shakllantirishda muhim qadam bo‘ladi. Xalq diplomatiyasi sohasidagi sa‘y-harakatlarning integratsiyalashuviga yordam beradi va tashkilot shafeligidagi gumanitar tashabbuslar to‘g‘risida xalqaro xabardorlikni oshiradi.

Ushbu formatni yo‘lga qo‘yish va amaliy mazmun bilan to‘ldirish maqsadida yaqinda SHHT kotibiyati, Xalq diplomatiyasi markazlari va euzu niyat elchilarining ilk maslahatlashuv uchrashuvi tashkil etildi.

Unda mazkur tuzilmalar o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari, madaniy-ma‘rifiy sohada hamkorlikni yanada kengaytirish, mintaqada o‘zaro anglashuv, do‘stlik va qardoshlik, yaxshi qo‘shnchilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan loyihalar yuzasidan fikr almashildi. Euzu niyat elchilari institutini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari belgilandi. Ularning salohiyatidan umumli foydalanish va SHHT faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiladigan tashkilot g‘oyalari, vazifalari va tamoyillarini ommalashtirish masalalari muhokama qilindi.

Uzoq yillar xalq diplomatiyasining muhim vositalaridan biri hisoblangan “euzu niyat elchisi” imkoniyatlaridan Farb mamlakatlari samarali foydalanmoqda. Biroq asrlar davomida ulkan mintqa xalqlarini savdo-sotiq, madaniy-ma‘naviy qadriyatlar orqali birlashtirgan, davlatlar va etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga asos solgan Buyuk ipak yo‘li davlatlari o‘rtasida bunday institutni amaliyotga kiritish o‘zo davlatlar umumiy boyligi hisoblangan qadriyatlar — birgalikda taraqqiyot sari intilish, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, ko‘p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasini o‘zida mujassam etgan “Shanxay ruhi”ga to‘liq hamohang.

#### Xulosa o‘rnida

O‘zbekiston tashqi siyosatida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar bilan uzviy aloqalarni rivojlantirish muhim yo‘nalishdir.

Prezidentimizning tashkilot platformasidagi tashabbuslari, avvalo, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun Yevroosiyo keng, ochiq, o‘zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik makonini shakllantirish yo‘lida davlatlar salohiyatidan foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Eng muhimi, O‘zbekiston ilgari surgan transport va o‘zaro bog‘liqlik, energetika, oziq-ovqat va ekologiya xavfsizligi, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya va “yashil iqtisodiyot” kabi muhim yo‘nalishlardagi mintaqaviy hamda xalqaro ahamiyatga molik takliflar tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, tashkilot makonida serqirra sheriklikni kengaytirish, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlik va do‘stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti makonida xavfsizlik, barqaror taraqqiyotni ta‘minlashning birdan-bir sharti — o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va birgalikda murosra yo‘lini izlashdir. Buning uchun barcha a‘zo davlatlar kuchlari, muammolar yechimida yakdill, euzu maqsad yo‘lida hamfikir bo‘lishi lozim.

2024-2025-yillarda Xitoy raisligidagi SHHT faoliyati Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tadigan sammitda sarhisob qilinadi. Mazkur amalan jahonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni sarhisob qilish, SHHT faoliyati natijalarini tahlil qilish, muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etishning yangi yo‘llarini izlash, o‘tgan davr tajribasidan kelib chiqib, maqsad va vazifalarga kerakli tuzatishlar kiritish borasida muhim qadam bo‘ladi.

# O‘ZBEKISTON – SHHT:

# MINTAQAVIY VA GLOBAL MIQYOSDAGI SAMARALI HAMKORLIK, O‘ZARO ISHONCH VA DO‘STLIK NAMUNASI

iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylandi.

O‘tgan davrda yuz bergan qiyin, inqirozli vaziyatlarda, jumladan, yangi ko‘rinishdagi dunyoviy sinov — koronavirusga qarshi kurashda ham tashkilot o‘z salohiyati va imkoniyatlarini keng namoyish eta oldi va jahon hamjamiyatining munosib e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining turli bloklardan xoli maqomga ega ekani, ochiqlik, uchinchi mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlar faoliyatiga biror-bir tarzda qarshi qaratilmagani, barcha a‘zo tomonlarning tengligi va suverenitetini qat‘iy hurmat qilish, o‘zga ishtirokchilarning ichki ishlariga aralashmaslik, siyosiy qarama-qarshilik va ixtilofli raqiblikka yo‘l qo‘ymaslik kabilar uning muvaffaqiyati garovidir.

Ulkan geografik makonni qamrab olgan va sayyoramiz aholisining qariyb yarmini birlashtirgan ushbu tashkilot mintaqaviy va xalqaro vaziyatda keskin o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir sharoitda o‘zini ko‘p tomonlama hamkorlikning ta‘sirchan mexanizmi sifatida namoyon etyapti. Tashkilot salmoqli shartnomaviy-huquqiy bazaga ega bo‘ldi. Institutsional jihatdan to‘laqonli tuzilma sifatida shakllandi. Qator tarkibiy organlari tashkil qilinib, barqaror faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

SHHT hududi mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash va ko‘p tomonlama hamkorlik orqali tinchlik, hamkorlik va taraqqiyot yo‘lida eng jozibador makonga aylanib bormoqda.

Dunyoda keskinlik ortib borayotgan bugungi kunda SHHTning ochiqligini saqlab qolish, umumiy xatar va tahdidlarga qarshi o‘z vaqtda va birgalikda choralar ko‘rish, mintaqada do‘stlik va yaxshi qo‘shnchilikni mustahkamlash, o‘zaro ishonchga asoslangan muloqot orqali mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni, xususan, SHHT makonida madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish tashkilot oldida turgan eng muhim vazifalar sifatida saqlanib qolmoqda.

#### “Shanxay ruhi” va “Samarqand ruhi”

XXI asrda xalqaro maydonda ro‘y bergan o‘zgarishlar sharoitida SHHT o‘zining hayotiyiligini saqlab qolishi va nufuzli xalqaro

tashkilotga aylanishining muhim sabablaridan biri, shubhasiz, “Shanxay ruhi”dir.

“Shanxay ruhi” davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlash jarayonida rioya etilishi zarur bo‘lgan asosiy tamoyillar mazmun-mohiyatini yaqqol ochib beruvchi va yangi xalqaro aloqalarni o‘rnatishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi konsepsiya’di. Uning negizida o‘zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, birga rivojlanishga intilish kabi tushunchalar mujassam. “Shanxay ruhi”ning mantiqiy asoslariga kiritilgan har bir konsepsiya chuqur ma‘noga ega. Ular birlashib, “Yangi xavfsizlik modeli” asosini tashkil etadi.

Bu model zamonaviy voqeiliklarga mos keladi va SHHTga a‘zo davlatlarning jahon tartibotidagi asosiy masalalar bo‘yicha jamoaviy pozitsiyasini aks ettiradi. Ushbu modelda biror-bir davlat xavfsizligi mintqa va hatto butun olam xavfsizligidan ajratilmaydi.

Zamonaviy dunyo sayyoramiz xalqlari hayotining siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlari bilan birga tez sur‘atda rivojlanmoqda. “Shanxay ruhi” tamoyillariga qat‘iy rioya etilishi natijasida SHHTning xalqaro maydondagi obro‘si jadal oshib bormoqda. Millionlab odamlarga madaniyatlararo muloqot va o‘zaro almashuvning yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, SHHT turli madaniy va sivilizatsion koldarga, o‘z tashqi siyosati yo‘nalishlariga va milliy rivojlanish modellarga ega mamlakatlarni birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan noyob davlatlararo tuzilmadir. Tashkilotning genetik kodi hisoblangan “Shanxay ruhi”ning asosiy g‘oyalardan biri — madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish. Bu tamoyil zamonaviy dunyoda madaniyatlar va sivilizatsiyalar xilma-xilligini tan olish, har bir davlatning tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, har bir millatning o‘z ijtimoiy tizimi va rivojlanish modelini mustaqil tanlashga hurmatni anglatadi.

SHHT mamlakatlarini nafaqat dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy vaziyat, balki ming yillar davomida shakllangan chuqur tarixiy va

davlatlar va etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga asos solgan Buyuk ipak yo‘li bunga yorqin misol. Bu yo‘l chorrahasida joylashgan afsonaviy Samarqandda asrlar mobaynda hamkorlik, savdo, ijod, ilm-fan va san‘at rivojlangan.

Shu bilan birga, SHHT o‘zining asosiy tamoyillari negizida “qotib qolmagan”, aksincha, davr bilan hamnafas tarzda muntazam rivojlanib bormoqda. Zero, dunyoda ro‘y berayotgan voqealar xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish va bu borada tarixiy jarayonlarni yangicha mazmunda tiklash zaruratini o‘rtaga qo‘ymoqda.

Tashkilotning 2022-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida xalqaro hamkorlik, jumladan, SHHT doirasidagi sheriklikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirishga xizmat qiluvchi “Samarqand ruhi” deb nom olgan noyob fenomen taklif etildi.

Asrlar davomida bu shaharda turli millat va elat vakillari tinch va barqaror yashab kelmoqda. Mintaqaviy yaqinlashuv, yaxshi qo‘shnchilik va ishonch muhitini yaratishga qaratilgan “Samarqand ruhi” SHHT mamlakatlari o‘rtasida millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlash, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Zero, Prezidentimiz 2024-yilda o‘tkazilgan “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda “Boy madaniy-tarixiy va ma‘naviy meros, an‘ana, urf-odatlar va xalqlarimizning turmush tarzi — bu o‘zaro ishonch ko‘prigini, yaxshi qo‘shnchilik va yaqin do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan qudratli va hayotbaxsh kuchdir”, deb ta‘kidlagan edi.

“Samarqand ruhi” dolzarbligi, o‘tmish va bugunni birlashtiruvchi shukhi bilan “Shanxay ruhi”ni to‘ldirish, tashkilotning xalqaro hamjamiyat oldidagi obro‘-e‘tiborini oshirishga munosib xizmat qilmoqda.

#### O‘zbekiston tashabbuslari

Prezidentimizning faol va pragmatik tashqi siyosati bugun mamlakatimizning nafaqat mintaqada, balki jahon miqyosidagi nufuzi va o‘rmini mustahkamlab, xalqaro jarayonlarga ta‘sirini oshirmoqda.

#### Xalq diplomatiyasi

Asrlar davomida insonlar turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi almashinuvning asosiy ishtirokchilari va mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona hamkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib kelgan.

# BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDAGI MUHIM QADAM



mustahkamlashning haqiqiy vositasiga aylanib borayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning SHHTdagi ishtiroki tarixida 2021-2022-yillarda mazkur tuzilmaga raislik alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimizning SHHTga raisligi 2022-yil 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda yakuniga yetdi. Mazkur forum tashkilotning eng nufuzli yig‘inlaridan biri sifatida tarix zaravaglaridan o‘rin oldi. U SHHTning jahon hayotidagi roli ortib borayotganini tasdiqladi hamda uning kengayish va hamkorlikning

yangi formatiga ochiqligini namoyish etdi. Sivilizatsiyalar chorrahasi, madaniyatlararo muloqot ramzi bo‘lgan qadimiy Samarqand tashkilot global barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash borasida o‘zining yangi missiyasini e‘lon qilgan maskanga aylangani ramziy ma‘noga ega.

Aynan Samarqandda SHHTni kelgusida rivojlantirishning strategik yo‘nalishini belgilab beruvchi muhim hujjatlar qabul qilindi. Asosiy e‘tibor oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish

va gumanitar aloqalarni mustahkamlash — millionlab odamlar farovonligi va butun mintqaq barqarorligiga bevosita daxldor barcha masalalarga qaratildi.

Samarqand sammiti chinakam tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Sammit yakunida SHHT faoliyatini sifat jihatidan yangi amaliy mazmun bilan to‘ldirgan rekord miqdordagi kelishuvlar — 44 ta hujjat imzolandi. E‘tiborlisi, Samarqandda Erinning SHHTga to‘laqonli a‘zo bo‘lishiga yo‘l ochib bergan majburiyatlar to‘g‘risidagi memorandum imzolandi. Samarqandda Misr, Qatar va Saudiya Arabistonining SHHTning muloqot bo‘yicha hamkorlari maqomini huquqiy rasmiylashtirish jarayoni ham yakunlandi va Belarus tashkilotga a‘zo bo‘lish tartibini rasman boshladi.

Bundan tashqari, Bahrayn, Maldiv orollari, BAA, Kuva’yt va Myanmaning SHHTning muloqot bo‘yicha hamkori maqomini olishi haqidagi arizalari qo‘llab-quvvatlandi.

Sammit doirasida SHHTning Arab davlatlari ligasi, UNESCO va BM’ning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari ham imzolangan tashkilotning xalqaro aloqalari kengayib borayotganining yorqin dalili bo‘ldi.

#### “Dunyo” AA





## Islohotlar amalda

“Inson va uning qadri ulug'langanining yana bir yorqin ifodasi sifatida “propiska” tizimining bekor qilinishini keltirish o'rinli. Joriy yildan boshlab Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yashash uchun alohida ruxsat olishni talab qiluvchi hujjat — doimiy ro'yxatdan o'tish shartlari haqidagi qonun o'z kuchini yo'qotdi. Ushbu o'zgarish nafaqat mamlakat ichida erkin harakatlanish imkonini kengaytirdi, balki mamlakatning ichki bozorini ham faollashtirdi. Fuqarolar endi mehnat, ta'lim yoki shaxsiy ehtiyojlarga qarab, to'siqsiz xohlagan hududda yashash va ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi.



## Qutbiddin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi

### Boshlanishi 1-betda

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizning barcha sohalarida asosli va misli ko'rilmagan yangilanishlar amalga oshirildi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi masofa qisqardi, inson manfaatli islohotlar markaziga qo'yildi.

Bugun hokimiyat va xalq o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqot bor. Senatorlar, deputatlar, vazir va hokimlar joylarga qiqib, fuqarolar bilan jonli muloqot qilmoqda. Muammolar qog'ozda emas, hayotda hal qilinmoqda. Bu boshqaruvda tamoman yangi standart, inson qadri ulug'langanidan dalolatdir.

Davlatimiz rahbarining inson qadri ulug', ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotidan rozi va mamnun bo'lib yashashi kerak degan ezgu g'oyasi ijobatini yurtdoshlarimiz o'z taqdiri va oilasi misolida ko'rib, his qilib turibdi. Ochiqlik siyosati olib borilgani tufayli xalqimizning davlatga ishonchi yanada mustahkamlandi.

Ayni paytda yurtimizda ta'lim va tarbiyaning uzviylikiga yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Ertamiz egalari bo'lgan dildarlarimizning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor davlat siyosatining asosiy maqsad va yo'nalishlaridan biri.

Yurtimiz bo'yab 5 mingdan ziyod maktab ta'mirlandi yoki qaytadan barpo etildi. Maktabgacha va oliy ta'limga qamrov keskin oshirildi. Bu shunchaki statistika emas, balki yurt kelajagining fundamenti, taraqqiyotga yetaklovchi bilimli avlodga yo'naltirilgan samoviyat.

Mazkur natijalarga nafaqat infratuzilma jihatdan, balki mazmunan ham e'tibor qaratilgan. Oliy ta'limga qabul o'rinarining oshishi, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik, yangi ixtisosliklarning joriy qilinishi — bularning barchasi zamonaviy bilimlar bazasiga asos solmoqda.

# AVLODLAR TAQDIRIGA DAXLDOR STRATEGIK O'ZGARISHLAR

Sport sohasida ham yurtimizda katta yutuqlar kuzatilmoqda. 2023-yilda O'zbekiston U-20 futbol terma jamoasi Osiyo chempioni bo'ldi. Bu tarixiy g'alaba mamlakatimiz futbolining yangi bosqichga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatdi. “Parij — 2024” Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi tarixiy natijalarga erishdi. Unda 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal qo'lga kiritildi. Olimpiadada qatnashgan 208 mamlakat orasida 13-o'rinni egallab, TOP-15 mamlakatlar safidan o'rin oldi. Shu bilan birga, Osiyoda 4-o'rinni, turkiy tilli davlatlar, musulmon davlatlar va MDH davlatlari orasida esa birinchi o'rinni zabt etdi. Qo'shimcha ravishda uch nafar sportchimiz bir vaqtda ikki karra Olimpiada chempioniga aylangani yurtimiz uchun yana bir g'urur manbai bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va huquqiy adolatni ta'minlashga qaratilgan islohotlar butun dunyo hamjamiyati e'tirof etgan darajada amalga oshirilmoqda. Chet elda mehnat qilayotgan vatandoshlarimizning huquqiy himoyasini ta'minlash, ularning huquqlari poymol bo'lishining oldini olish maqsadida mutlaqo yangi tizim yaratildi. Ijtimoiy muhofaza, huquqiy maslahatlar, ish bilan ta'minlash kabi masalalarda tashkillashtirilgan migratsiya siyosati samarali yo'lga qo'yildi.

Mazkur islohotlarning yana bir muhim jihati shundaki, adashib boshqa yo'lga kirib qolgan vatandoshlarimizga nisbatan ilgariidek dushman ko'zi bilan qarash amaliyotiga barham berildi. Aksincha, ularga kechirimli munosabatda bo'lish, insoniylik va bag'rikenglik tamoyillari asosida yondashish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu ichki barqarorlik va ijtimoiy totuvlik yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Huquqiy davlat qurishda erishilgan eng katta yutuqlardan yana biri 2017-2024-yillar oralig'ida 6679 nafar shaxs oqlanganidir. Ilgari sudlangan va jazo muddatini o'tagan bo'lsa-da, oqlanmagan fuqarolarning huquqiy maqomi qayta ko'rib chiqilib, ularga munosib hayotga qaytish imkoniyati yaratildi. Bu inson qadri ulug'lash va adolatni tiklashning yorqin namunasi hisoblanadi.

Shuningdek, xorijga chiqishdagi byurokratik



“Parij — 2024” Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi tarixiy natijalarga erishdi. Unda 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal qo'lga kiritildi. Olimpiadada qatnashgan 208 mamlakat orasida 13-o'rinni egallab, TOP-15 mamlakatlar safidan o'rin oldi. Shu bilan birga, Osiyoda 4-o'rinni, turkiy tilli davlatlar, musulmon davlatlar va MDH davlatlari orasida esa birinchi o'rinni zabt etdi.

bir yorqin ifodasi sifatida “propiska” tizimining bekor qilinishini keltirish o'rinli. Joriy yildan boshlab Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yashash uchun alohida ruxsat olishni talab qiluvchi hujjat — doimiy ro'yxatdan o'tish shartlari haqidagi qonun o'z kuchini yo'qotdi. Ushbu o'zgarish nafaqat mamlakat ichida erkin harakatlanish imkonini kengaytirdi, balki mamlakatning ichki bozorini ham faollashtirdi. Fuqarolar endi mehnat, ta'lim yoki shaxsiy

xodimlari har yilgi paxta terimi va boshqa mavsumiy ishlarga jalb etilardi. Bu amaliyot nafaqat inson huquqlariga zid, balki ijtimoiy sohadagi faoliyatni ham izdan chiqarar, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Maxsus qarorlar, nazorat mexanizmlari va javobgarlik choralarini joriy etilishi natijasida mazkur salbiy illatga chek qo'yildi. Bu orqali nafaqat inson qadri ulug'landi, balki ijtimoiy sohalarida mehnat muhiti ham barqarorlashdi.

Iqtisodiy tarmoqda ham ildam qadamlar tashlandi. 2017-yildan boshlab ichki valyuta bozori erkinlashtirildi, xorijiy valyutani xarid qilishdagi cheklavlar bekor qilindi. Ilgari konvertatsiya jarayonlarida jismoniy shaxslar davlat kursidan foydalanish uchun oylab, ba'zida yillab navbatda turishga majbur bo'lar edi. Endi esa fuqarolar xorijiy valyutani erkin xarid qilish, shaxsiy ehtiyojlari yoki investitsiya maqsadlarida to'lovlarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi. Valyuta siyosatidagi shaffoflik va erkinlik ichki bozorda raqobatni kuchaytirib, tadbirkorlik muhitini yaxshiladi va xorijiy sarmoyalar uchun O'zbekistonni yanada jozibador mamlakatga aylantirdi.

Shu bilan birga, 2018-yilda 218 ta bo'lgan avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash shoxobchalari soni 2024-yilda 3400 taga yetkazildi. Bu valyutani xarid qilish, sayohat va biznes yuritishda aholi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Qolaversa, naqd pul muomalasidagi byurokratik to'siqlar to'liq bartaraf etildi. Ilgari plastik kartalardan pul yechib olish uchun 40 foizgacha ortiqcha to'lov to'lashga to'g'ri kelardi. Bugun esa fuqarolar o'z mablag'ini erkin, shaffof va oson tarzda boshqarish imkoniga ega. Qariyalirimiz esa pensiya olish uchun banklar oldida kunlab navbatda tursadan, nafaqalarini bevosita uylarida qabul qilyapti.

Ijtimoiy muhofaza masalalarida ham muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya vositalari bilan ta'minlash 2 baravarga ko'paydi. 2023-yilda bu ko'rsatkich 45 ming dona, 2024-yilda esa 104 mingga yetdi. Bandligi ta'minlangan nogironligi bo'lgan shaxslar soni esa 151 ming nafar bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatda inson qadriga

bo'lgan munosabat mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Fuqarolarga nisbatan insoniy va bag'rikeng yondashuvning yana bir ko'rinishi sifatida “Meir” operatsiyalari doirasida og'ir ahvolda qolgan yurtdoshlarimizni Vatanga qaytarish amaliyotini keltirish mumkin. Suriya, Iroq va Afg'onistondan 531 nafar ayol va bola Vatanga qaytarilib, ular uchun munosib sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari, 100 nafar falastinlik Toshkentga evakuatsiya qilinib, shifoxona va reabilitatsiya markazlariga joylashtirildi. O'zbekiston hozirda mehmon falastinliklarga har tomonlama yordam bermoqda.

Fuqarolik masalasida ham tarixiy o'zgarishlar kuzatildi. 1991-2016-yillarda jami 482 kishi O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilingan bo'lsa, so'nggi sakkiz yilda 84 ming nafardan ziyod fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yurtimiz fuqarosi deb topildi. BMT Bosh kotibi ushbu holatga alohida ta'rif berib, boshqa davlatlar uchun namuna sifatida keltirdi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ushbu islohotlar xalq bilan birga va xalq uchun amalga oshirilmoqda. Oldimizda yanada katta maralar, keng istiqbolli vazifalar turibdi. Bizdan yagona talab — shu o'zgarishlarga faol qatnashish, yurt ravnaqi uchun mas'uliyatni his etish. Chunki yangi O'zbekiston barchamizning umumiy taqdirimiz.

## Nuqtayi nazar

Prezidentimiz mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida boshqa sohalar qatori ta'lim-tarbiya bo'yicha qilinayotgan ishlarga alohida to'xtalib, bu ikki tarmoq kelgusi taraqqiyotimizni hal qiluvchi masala ekanini alohida ta'kidladi. Ana shu ishlar tufayli so'nggi sakkiz yilda xususiy sektor bilan hamkorlikda bog'chadagi o'rinarlar 2,5 millionga, qamrov 78 foizga yetkazildi. Yangi maktablar qurilib, borlari kengaytirilgani hisobiga qo'shimcha 1 millionta o'quvchi o'rni ochildi. Zamonaviy darsliklar, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida maktab ta'limiga yangi mazmun, yangi sifat kirib kelmoqda. Shu davrda oliy ta'limda ham keskin buriilish yuz berib, qamrov 9 foizdan 42 foizga yetkazildi. Ayniqsa, talabalarining 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani alohida e'tiborga sazovor.



## G'ofur ABDILAKIMOV, O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, professor

Hozir dunyodagi yetakchi oliygo'harlar O'zbekistonlik 2000 dan ziyod yosh tahsil olmoqda. O'tgan yili yurtimiz yoshlari eng ilg'or 500 ta OTMga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egalladi. Bu yildan boshlab maktablarimizda esa katta ijobiy holat

ko'zga tashlanmoqda. Yurtimizdagi 3 ta maktab bitiruvchilari oliygo'harlarga kirish bo'yicha 100 foizlik natijaga erishdi.

Istiqlol bizga shunday imkon berdi. Dunyoga tanilish yo'lini ochdi. Har gal Mustaqillik bayrami shukhi keza boshlaganida qalbni o'z-o'zidan isloh bo'layotgan butun bir jamiyat, fikri, dunyoqarashi, ertangi kunga intilishi ilg'orlagan odamlar haqidagi 4,5 ylar chulg'ab oladi. Qaysi sohaga boqmang, taraqqiyot odimlarini ko'rasiz. Ayniqsa, maktabgacha va oliy ta'lim, tibbiyotdagi yutuqlar samarasi kundalik hayotimizda seziladi. Odamlarning oliy ma'lumot olishga intilishi oshgani, buning samarasi o'laroq aholining ziyoli qatlami kengayib borayotgani ham haqiqat.

2016-yilni olsak, mamlakatimizdagi oliygo'har soni 80 taga ham yetmay, oliy ta'limga qamrov 9 foizni tashkil etardi. Ayni paytda esa oliy ta'limda qabul 4,5 barobar oshib, qamrov 42 foizga yetdi. Bundan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlanib boryapti. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan mamlakatimizning nufuzi yuksalishiga hissa qo'shadi. Professor-o'qituvchilarning qadri, hurmati ortdi. Oyluk maoshi esa o'rtacha 3,5 barobar oshirildi. Oliy



ta'lim muassasalarini sonining bir necha barobar ortgani minglab yoshlarning, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilyapti. Bugun oliy ta'limda xususiy sektorga keng yo'l ochildi.

Davlatimiz rahbari o'tkazadigan yig'ilishlarning eng katta qismi ta'lim-tarbiya, yoshlarni ma'n'an barkamol etib tarbiyalashga bag'ishlanadi, desak mublag'a bo'lmaydi.

Zero, ta'lim taraqqiyotiga erishmay turib, hech bir sohada katta yutuqlarni qo'lga kiritib bo'lmaydi. Bu zamonaviy, yetuk kadrlar safining ortishi bilan bog'liq muvaffaqiyat.

Prezidentimiz shu yil 8-avgust kuni oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda oliygo'har rektorlari mas'uliyatini yanada oshiradigan qator vazifalarni ilgari surdi.

Bu bo'yicha yangi tizim joriy qilish zarurligi ta'kidlandi.


Endi qiymati yuqori, ko'p ishchi talab qiladigan loyihalar uchun mas'ul vazir va tarmoq rahbari oliygo'harlarga buyurtma berib, kadrlarni maqsadli tayyorlash yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Buyurtma asosida o'qiyotgan talabalar uchun asosiy fanlardan tashqari qo'shimcha ta'lim modullarini joriy qilish rektorlar ixtiyorida bo'ldi. Moliyalashtirish oliygo'harlar to'plagan ballga qarab amalga oshirilishi ham bu boradagi xolislikka xizmat qiladi. Zero, bitiruvchilari bandligi, ilmiy tadqiqotlari uchun tarmoq buyurtmasi va mahsulotini sotib olishiga qarab beriladigan ballar oliygo'harning asosiy faoliyati natijadorligini ko'rsatib beradi. Tan olingan xalqaro nashrlardagi maqolalar, tadqiqotlar uchun jalb qilingan mahalliy va xorijiy grantlar esa ilmiy salohiyatni namoyon etadi.

Umuman olganda, biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Rennassans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanimiz, intellektual avlodni tarbiyalab beradigan muhit va sharoit yaratishimiz kerak. Bugungi sa'y-harakatlarimiz esa aynan shu maqsad sari yo'naltirilyapti. Bu yo'lga Vatan uchun, shu xalq uchun, uning nufuri etasi uchun qayg'uradigan ustozlar, millat fidoyilarining zahmati mehnati yo'lchiroq bo'ladi. Zero, ilm nuri yoritgan yo'l'larda hech qachon jaholatga, razolarga, vijdon amriga qarshi yo'lga yo'lga o'rin qolmaydi. Ilm qudratga, mamlakatning ma'rifat quroliga qiyoslanishi ham shundan.





O‘zbekona mahalla qiyofasini bilasiz: hovli-joy, dov-daraxt, gulzor, devor-darmiyon qo‘shnilar. Darvoza-yu eshikka gulf osilmaydi. Bitta uyda osh damlansa, ikkinchi xonadonda yashovchi yoshi ulug‘ qariyalarga olib chiqish an‘anasi bor. Qandoq ibratomuz taomil-a! Mahallani ko‘hna halqaga qiyoslashadi, bu bor gap. Bugun qadimiy ildizlar yangilanmoqda. Qanday qilib deysizmi? Misollar ko‘p.



**Hulkan TO‘YMANOVA,**  
**O‘zbekiston Respublikasida**  
**xizmat ko‘rsatgan jurnalist**

Hozir yangi O‘zbekistonning qaysi tumani yoki shahriga bormang, mahalla tubdan o‘zgarib, obod qiyofa kasb etganini ko‘rasiz. Har bir uyda yengil mashinaning qaysidir turi, hashamatli darvoza, to‘kin dasturxon bor. Kimdir kelin tushirsa, boshqasi ota-onasining tabarruk yoshga to‘lgani uchun dasturxon yozadi. Xalqimiz farovonlik qanday qo‘lga kiritilishini bilib olgan: qilni qirq yorib, tadbirkorlik qiladi — savdo shoxobchasi ochadi, ishlab chiqarish korxonasi tashkil etadi, ekin ekadi, chorva boqadi. Buning ortidan daromad, daromadga yarasha buromad keladi.

Bilasiz, Namanganda Uychi tumani bor, uning shundoqqina biqinidan Norin dar-yosi oqib o‘tadi. Havosiga gap yo‘q: suv oqqan joyda kislorod mo‘l, chang-g‘ubor chekinadi, ekin-tikin yashnaydi. Shu bois, Qumtepa mahallasida istiqomat qiluvchilar uchun Norin daryosining borligi katta imkoniyat.

Mahallada 941 ta xonadon mavjud, 1529 ta oila qayd qilingan. Ota-bobolari bog‘-rog‘ yaratib, tirikchilik qilgan, hunarmandlik bilan shug‘ullangan qumtepaliklarning bugungi kunda shashti yanada baland. Ular osmondan chalpak yog‘ilishini kutib o‘tiradigan el emas. Daryoga tutashib ketgan tashlandiq, qarovsiz maydonga bundan uch-to‘rt yil avval hech kim qadam bosmasdi. Hozir esa bu yer kichik sanoat zonasiga aylangan. Daromad topishni, oilasi farovon bo‘lishini kim xohlamaydi deysiz?

— Sobiq itifoq davrida metall mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod faoliyati to‘xtab qolgach, mahallamizda ishsizlik vujudga keldi, — deya gap boshladi Qumtepa mahallasi raisi Zulfiya Akbarova. — Ammo ishning ko‘zini biladigan hamqishloqlarimiz uyda tirikchilik qilishga o‘tdi. Mustaqilligimiz qo‘lga kiritilgan ilk yillarda ham ahvol yaxshi emas edi. Qora qozonini qaynatish uchun musofirlilik xaltasini yelkaga ortib, qo‘shni davlatlarga ketganlar ham bo‘ldi. Faqat 2023-yilga kelibgina muammolarga chek qo‘yildi. Uch gektar qarovsiz yotgan maydonda yoshlar kichik sanoat zonasi ochildi. To‘g‘ri, dastlab tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilarning boshini biriktirish ancha qiyin kechdi. Ammo uni loyihalashtirganimizdan so‘ng hech kim bir-biriga yovqarash qilmaydigan bo‘ldi. Boshqacha aytganda, doshqozon bitta — klaster shaklidagi sanoat zonasida xomashyo izlab qayovqadir borish shart emas. Metall kerakmi, shu yerda, dastgoh kerakmi, boshqa tomonga burilish shart emas, bo‘yoq, butlovchi qism, bari-bari shu joyda muhayyo. 64 ta loyihada 1,5 ming kishi ish bilan ta‘minlandi. Ayniqsa, o‘tgan yili mart oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mahallamizga tashrifidan behad mamnun bo‘ldik.

Davlatimiz rahbari to‘la quvvat bilan ishlayotgan kichik sanoat zonasi faoliyati bilan tanishib, o‘zining zaruriy maslahatlarini berdi. Prezidentimiz tashrifidan so‘ng tuman hokimligi bizga yana ikki gektar yer maydoni ajratdi. Hozir umumiy maydonimiz 5,2 gektarni tashkil etadi. Mahsulot xili serob: metall so‘ri, temir darvoza, atraksion, panjara, xullas, metall buyumning barchasiga buyurtma bor. Eng muhimi, mahalladoshlarimiz xorijga ketmayapti, bola-chagasining yonida. O‘rtacha oylik daromad 12-13 million so‘m bo‘lgach, boriga baraka-da, yomon emas axir. Chet elda birovning qo‘liga qarab, mute bo‘lgulik qilmasin! Qumtepaliklarning mahsulotiga nafaqat O‘zbekiston, balki Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qoraqalpog‘iston

tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmaga to‘liq aylanib ulgurd. Shu zaminda yashayotgan, uning suv-nonini totayotgan kishi borki, o‘z hayotini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayro tasavvur etolmaydi. Uychining Qumtepa mahallasi kabi tilga tushgan, eli to‘kis va farovon



yashayotgan maskanlar oz emas. Ayni paytda mamlakatimizda to‘qqiz mingdan ziyod mahalla fuqarolar yig‘ini faoliyat yuritmoqda. Mulohaza qilaylik: har bir mahalla bir yilda jamiyat hayoti, fuqarolar turmush farovonligi yo‘lida bittadan tashabbusni amalga oshirsa, bu bir yilda shuncha yangilik bo‘y ko‘rsatdi degani. Agar tashabbus barcha mahallalarga keng joriy qilinsa, bu xalqimizning farovonligi oshganidan dalolat bermaydimi? Mana, masalaning tub negizi qayerda, nima uchun Prezidentimiz mahalla tizimini rivojlantirishga keng yo‘l ochmoqda?! Demak, buni O‘zbekistonning har bir mahallasidagi barcha fuqaro his qilishi kerak.

#### Yoshlar — davlat tayanchi va zaxirasi

Yosh yigit-qizlarni ko‘rsak, havas qilamiz. Ularning porloq ertasiga jonimiz qalqon. Aynan shu masalaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Bugun maktab partasida dars tinglab, kasb-hunar egallayotgan, oliy o‘quv yurtida qaysidir ixtisoslik bo‘yicha ta‘lim olayotgan yoshlar — O‘zbekistonning kelajagi, demak, yurtimiz taqdiri ularning qo‘lida. Yoshlar hayoti bilan bog‘liq dolzarb masalalar 2022-2026-yillarga

Qarorga ko‘ra, har bir shaharcha, qishloq, ovul va mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Avval bu ancha tor doiradagi faoliyat bo‘lib, jamoatchilik zimmasiga yuklanar, tizimli tarzda ish olib borilmasdi. Aslida, yoshlar bilan o‘z yashash manzili, ya‘ni mahallasida ishlash, muammolarini o‘rganish ko‘proq samara berar ekan.

— Yoshlar yetakchisining vazifasi juda serqirra, unga tegishli bo‘lmagan masalaning o‘zi yo‘q, — deydi bu haqda Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassisi Umrbek Eshjonov. — Agentligimiz zimonidan yetakchilarni saralash va tayinlashda ularning o‘z yashash hududini yaxshi bilishi, ma‘lumoti, ijtimoiy kelib chiqishi, erishgan yutuqlari inobatga olindi. Hozirda 9008 nafar yoshlar yetakchisi katta ko‘makchimiz va kuchimizga aylanib ulgurd. O‘z mahallasi, qishlog‘i yoki ovulida xonadonmaxonadon yurib, xatlov o‘tkazayotgan yetakchilar ko‘magi bilan yoshlar balansi shakllantirildi. 2022-2025-yillar davomida “Yoshlar daftari” orqali 1,3 million nafar ehtiyojmand yosh qo‘llab-quvvatlandi, 236,9 ming kishiga 125 ming gektardan ziyodroq yer maydoni ajratilib, daromad olish va bandligini ta‘minlash choralari ko‘rildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda har yili yoshlarning noyob qobiliyat va iqtidorlarini keng namoyish etish, yangi iste‘dodlarni kashf qilishga qaratilgan “Besh tashabbus loyihamasi” o‘tkazib kelinmoqda. Oxirgi yillarda bu bellashuvga jalb qilingan millionlab ishtirokchilar orasidan 27 mingga yaqin iqtidorli yoshlar kashf etildi, ularning istak-maqсадlarini amalga oshirish chora-tadbirlari ko‘rildi.

akademiyasi” orqali 300 ming xotin-qiz, “Ustoz AI” orqali 530 ming yosh turli zamonaviy kasblarga, “Muloqat” loyihasi orqali ikki milliondan ziyod kishi kitobxonlikka jalb qilindi.

Yoshlar orasida ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlam ham yo‘q emas. 167 ming 123 nafar yigit-qizga turli darajadagi zaruriy yordam ko‘rsatildi. Jumladan, yoshlar yetakchisi aralashuvi bilan xulq-atvori ijobiy tomonga o‘zgargan 3532 kishi muddatidan avval probatsiya va profilaktika hisobidan chiqarildi. Mahalla raisi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ibratli ishlardan yana biri — 770 ta oilaviy ajrimning oldi olindi. Hokim yordamchisi bilan birgalikda 10 ming 624 nafar yoshning bandligi ta‘minlandi. So‘nggi to‘rt yildagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yetakchi bo‘lib faoliyat yuritayotgan kadrlar orasida tashabbuskor, tajribali va boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan yigit-qizlar ko‘zga tashlanmoqda. Ijoiy natijalarni ko‘lga kiritgan 1732 nafar yoshlar yetakchisining bazasi shakllantirilib, zaxiraga olindi. Ularni kelajakda yuqoriroq lavozimlarga qo‘yish rejalashtirilgan. Ana shunday faol yetakchilardan biri Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ishlayapti.

— Men Kitob tumanidagi Yangiobod mahallasida yoshlar yetakchisi, — deydi “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni sohibi Nigina Zaripova. — Tengdoshlarim yoki mendan uch-to‘rt yosh katta-kichiklar bilan ishlash menga zavq-shavq bag‘ishlaydi. Natijalarimga ko‘ra, faol yetakchilar reytingining top-100 taligi ro‘yxatidan o‘rin oldim. To‘g‘risini aytсам, mahallamiz binosi moslashtirilgan, agar u zamonaviy shaklda qurilsa, rejalarim juda katta. Chog‘roqqina kutubxonani kengaytirmoqchiman.

97-umumta‘lim maktabidan tashqari 1-, 3-, 5-ta‘lim maskanlari o‘quvchilarini ham kutubxonaga olib kirib, kitobxonlikka jalb qilish usullarini qo‘llayapman. Agar mahalla binosi yangilansa, ingliz tilini o‘rgatish o‘quv kursini ochish niyatim bor.

#### Inson qadrlanadi va ardoqlanadi

Nutqimizda eng ko‘p tilga olinadigan “ijtimoiy” so‘zi tegishli bo‘lmagan sohaning o‘zi yo‘q. Bu atamaning yoniga “himoya” so‘zini qo‘shsak, ma‘no yanada chuqurlashadi. Ijtimoiy himoyaga e‘tibor qaratilgan va bu davlat siyosatining katta yo‘nalishiga aylangan mamlakat — yangi

O‘zbekistonda xalqimiz turmush tarzida azal-azaldan qaror topib kelayotgan mehr-muruvvat, g‘amxo‘rlilik, homiylik, qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘hna qadriyatlar muayyan tizimga solinmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatlari ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni aynan ana shu g‘oyalarni o‘zida mujassam etgani bilan e‘tiborga molik. Ijtimoiy himoya milliy agentligi bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilib, savobga yo‘naltirilgan xizmat turlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanib kelayotgan vakolatli davlat organi hisoblanadi. Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar xususida agentlikning hududiy boshqarmasi boshlig‘i Nodirbek Sharipov quyidagilarni hikoya qiladi:

— Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan vujudga kelgan yangi tuzilma aholining kam daromadli, yordamga va parvarishga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlamoda. Avval ham bunday yordam turlari bo‘lgan, lekin bu bilan turli tashkilotlar shug‘ullanardi. Endilikda Ijtimoiy himoya milliy agentligi xodimlari tomonidan kam ta‘minlangan, o‘zgalar parvarishiga muhtoj, nogironligi bo‘lgan shaxslarning yashash tarzi o‘rganilib, o‘z muammolari kesimida ularning reyestri shakllantirilgan. Viloyatimizda “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan aholi soni 110,2 ming kishini tashkil etadi. Ikkinchi yo‘nalish — o‘zgalar parvarishiga muhtoj 471 kishiga 53 nafar ijtimoiy xodim-assistent tomonidan yordam ko‘rsatib kelinmoqda. Xizmat besh turda tashkil etilyapti. Uchinchi yo‘nalishda nogironligi bo‘lgan shaxslar qamrab olingan. Ko‘rinadiki, har bir yo‘nalishning o‘ziga yarasha “yuki” bor, biri ikkinchisidan yengil yoki og‘ir emas. Har qaysi toifa ijtimoiy himoyaga muhtoj, g‘amxo‘rlilik istaydi. Viloyatimizda 45 mingdan ziyodroq imkoniyati cheklangan shaxs istiqomat qiladi. Shundan 9 ming nafari voyaga yetmagan bolalar. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni aniqlash, ularga protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalarini ajratish tizimi elektronlashtirildi. 2024-yil 1-avgustdan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ortopediya mahsulotlarini elektron vaucher asosida o‘z uyidan buyurtma berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hozirga qadar 1,9 ming kishi protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta‘minlandi. Hali bu borada muammolar ham ko‘p, hafsala bilan o‘rganishimiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar ehtiyojini bosqichma-bosqich qondirib borishimiz kerak. Ana shundagina ular davlatdan va ushbu xizmat turi xodimlaridan rozi bo‘ladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaro o‘ziga nisbatan mehr-muruvvat ko‘rsatilsa, to‘lib-toshib so‘zlaydi. Axir qadrlansa, e‘tibor ko‘rsatilsa, kimning ko‘ngli yorishmaydi? Sharof Rashidov tumanidagi Qo‘shko‘prik mahallasida istiqomat qiluvchi Shamsiya aya Abdurahimovanning fikriga quloq tutamiz: — Yolg‘izman deb aslo o‘ksimayman, boshimni silab turgan davlatimiz bor. Holimizdan xabar olib turadigan ijtimoiy xizmat xodimasi — Madina o‘z qizimdek bo‘lib qolgan. Uy-ro‘zg‘or ishlarimni tindirib ketadi, umridan baraka topsin. Dori-darmonlarimni ichiradi, osh-ovqatim tashqar. Qayerda bor bunaqa yaxshilik, qayerda bor bunaqa ro‘shnolik? Nolisak, noshukurlik bo‘ladi. Yolg‘iz keksalar, nogironlar, nochor va kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlayotgan davlatimiz rahbaridan ming bora roziyim!

O‘zbekiston deya atalar,  
Uni sevib el tilga olur,  
deya yozgan edi hassos shoir Hamid Olimjon. Yaqin o‘tmishda bitilgan bu satrlar hamisha va har qachon haqqoniydir! Bu yurtida inson uchun imkoniyatlar keng, bu Vatanda tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti yuzaga kelib, yoshlar uchun keng qamrovli ishlohotlar izchil davom etirilmoqda. Ijtimoiy himoya tom ma‘nodagi tizimga aylanib ulgurdi. Hali yozilmagan ishlohotlar qancha! Bularning barchasi yanori O‘zbekistonda yangicha turmush tarzi qaror topayotganining yaqqol isbotidir.

## O‘ZBEKISTON

*Tog‘larda tong otdi. Shu‘larang titroq —  
Osmon cho‘qqilarga bog‘langan yelkan...  
Yer yuzida qancha yurtlar bor, biroq  
Baridan barvaqtroq uyg‘onar o‘lkam...*

*Quyoshni qumg‘onda qaynatgan cho‘pon,  
piyolasi ichra suzib yurar oy —  
Egniga bulutdan ilarkan chopon,  
Bobotog‘ mehmonga uzatadi choy.*

*Baxmal adirlarda tunda tin ol... Kel!  
Qo‘l cho‘zsang, yulduzlar seniki — turfa!  
Bahor belanchagin o‘ynatadi yel,  
Qirlar bolish bo‘lar, lolazor ko‘rpa.*

*Bolari boshida tashvishli dunyo,  
bog‘lardan bol terar, zarra yo‘qdir kek...  
Tongni qarshi olar rizq tutib go‘yo  
tinib-tinchimagan beminnat o‘zbek.*

*Jahon-la bo‘ylashga yetar jur‘atim,  
Xalqim yuragida daryoning sehri.  
Har zarra qumida zamin qudrati,  
Ikki daryo ichra toshadi mehri.*

*Yurtlar ko‘p jahonda chiroyli, ko‘rkam,  
O‘yin-kulgi bilan yashar ko‘ngli to‘q.  
Jahon qahqahasi jamlanganda ham  
Xandon pistamizning kulgisicha yo‘q...*

*Dunyo, kengligingdan o‘rgildim... Kezdim!  
Goho kulgim qistar qilgan ishimga.  
Ta‘til tugamasdan sog‘inchni sezdim —  
Xorijda qishlog‘im kirdi tushimga.*

*Sotmadim shon-shuhrat izlab vijdonni,  
Non-u tuz hurmati zaminga qasam...  
Mendan xafa bo‘lmang, O‘zbekistonni  
Hamangizdan ko‘proq sevaman desam...*

Qo‘chqor NORQOBIL



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-946.  
34830 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 tabaq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz e bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov  
Musahhih: Asliddin Abdurazqov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy